MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

4-MAXSUS SON

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
sentyabr-oktabr

Belarus–O'zbekiston

ilmiy-texnik hamkorligi: zamonaviy muhandislik ta'limi, amaliy kvalifikatsiyalar va innovatsion sanoat rivoji



ISSN: 3060-463X

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

РЭУ.РФ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TOSHKENT YONGINACHI VA YENGIL SANOAT UNIVERSITETI

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr/oktabr.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH DARAJASI: O‘ZARO BOG‘LIQLIK NAZARIYASI 9
Abidova Shahnoza Abduvaliyevna
THE IMPACT OF BUY NOW, PAY LATER SERVICES ON E-COMMERCE SALES 12
Maxmudova Munisaxon Abbos qizi
ROUTE-LEVEL PROFITABILITY ZONES IN RAILWAY PASSENGER TRANSPORT 16
Eshboyev Ulugbek Farxodovich
AHOLI DAROMADLARI VA TURMUSH DARAJASI: O‘ZARO BOG‘LIQLIK NAZARIYASI 20
Abidova Shahnoza Abduvaliyevna
ОПЕРАЦИОННАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КАК ДРАЙВЕР ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ ПРЕДПРИЯТИЙ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ В УСЛОВИЯХ РАЗВИВАЮЩИХСЯ ЭКОНОМИК: ЭМПИРИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ НА ПРИМЕРЕ ООО «SIRDARYO MEGA LUKS» 23
Ташпулатов Дильмурад Рустамович
PREPARING STATE-OWNED COMMERCIAL BANKS FOR PRIVATIZATION: INSTITUTIONAL TRANSFORMATION, CORPORATE GOVERNANCE, AND CAPITAL MARKET READINESS IN UZBEKISTAN .. 28
Salamov Islam Tashkazakovich
RAQAMLI TO‘LOVLAR ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO‘LAMINI QISQARTIRISH: XITOY TAJRIBASI VA MAKROFISKAL SABOQLAR 34
Shonazarov Ashurali Akabayevich
DIGITAL FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR IN TASHKENT CITY 37
Abdikayumov Bekzod Turdiniyozovich
METALLARGA MEXANIK ISHLOV BERISH JARAYONLARINI KOMPYUTER MODELLASHTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH 41
Usmonov Abbos Valijon o‘g‘li
IMPROVING THE MECHANISM FOR EXPERT ASSESSMENT AND CERTIFICATION OF FOOD SAFETY BASED ON QUESTIONNAIRE SURVEYS 45
Mahamatova Maftuna Shukrullo qizi
BEYOND FINANCIAL METRICS: RAILWAY TRANSPORT EFFICIENCY 48
Kurambayev Alisher Saburbayevich
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI 53
Jo‘rayev Eldor Berdibekovich
OPTIMIZING SCHOOL MANAGEMENT THROUGH TERRITORIAL CLUSTERING TO ENSURE AN INCLUSIVE EDUCATION ENVIRONMENT: INTERNATIONAL EVIDENCE AND AN IMPLEMENTATION FRAMEWORK FOR UZBEKISTAN 58
Rajapova Guldona Usman kizi
OPTIMIZATION OF THE FOOD SUPPLY AND DELIVERY SYSTEM IN TASHKENT REGION 62
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich
RAQAMLI BANK EKOTIZIMIDA SUN’IY INTELLEKT VA KATTA MA’LUMOTLAR ASOSIDA MIJOZLARGA XIZMAT KO‘RSATISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH 65
Eshqobulova Charos O‘roq qizi
RAQAMLI MOLIYAVIY MUHITDA BANK MIJOZLARINING XAVFSIZ XULQ-ATVORI VA MOLIYAVIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH 67
Eshqobulova Charos, Babanazarova Gulzar
ASSESSING DIGITAL ADAPTATION IN SMALL BUSINESSES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN. 70
Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna

INSTITUTIONAL ENVIRONMENT AND ACADEMIC STAFF WORK EFFICIENCY: HUMAN RESOURCE MANAGEMENT PERSPECTIVES 73
Sultonboyeva Munira, Sultanova Kamila
ЭКСЕРГЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СИСТЕМ ЭЛЕКТРОСНАБЖЕНИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ПРИ ПРОВЕДЕНИИ ЭНЕРГОАУДИТА 79
Anarbaev A.I., Bahodirova M.T.
SCENARIO FORECASTING OF AI-DRIVEN EFFICIENCY IN UZBEKISTAN'S TEXTILE INDUSTRY TO 2030 83
Madrahimova Onajon Javlon qizi
TIJORAT BANKLARIDA TASHQI AUDIT JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH VA AUDIT DALILLARINING ISHONCHLILIGINI OSHIRISH 85
Ziyodullayeva Nargiza Yusuf qizi
MINTAQA IQTISODIY SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI 89
Xudoyberdiyeva Asila
LABOUR PRODUCTIVITY, STRUCTURAL CHANGE, AND BAUMOL'S "COST DISEASE" IN THE SERVICE SECTOR: A SECTORAL ANALYSIS OF THE UZBEKISTAN ECONOMY 94
Xasanov Axmadjon Shodiyorovich
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ПРОЕКТИРОВАНИИ СТРЕСС-СЦЕНАРИЕВ ЛИКВИДНОСТИ: ОТ ФИКСИРОВАННЫХ ПОРОГОВЫХ ЗНАЧЕНИЙ К ДИНАМИЧЕСКОМУ МОДЕЛИРОВАНИЮ 103
Курбонов Илхом Жумакулович
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA IN MODERN BANKING: FROM RISK DETECTION TO DECISION-MAKING 107
Parpiyeva Ra'no
PUL-KREDIT SIYOSATIDA INSTITUTSIONAL NOMUVOFIQLIK: MA'MURIY VA MONETAR SIYOSATNING ASOSIY YO'NALISHLARI 110
Muxammadiyev Tuychi Jumma o'g'li
THE IMPA INTEGRAL INDEX AS A TOOL FOR EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF EDUCATIONAL SERVICES MARKETING 113
Umarov Shuhrat Bahodir o'g'li
EKSPORTNI MOLIYALASHTIRISH NAZARIYALARI 116
Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-РЕСУРСНАЯ РАМКА ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ ПРЕДПРИЯТИЙ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВОЧНОЙ ИНДУСТРИИ: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ИДЕНТИФИКАЦИИ И КОЛИЧЕСТВЕННОЙ ОЦЕНКЕ ОТРАСЛЕВЫХ РИСКОВ 120
Медведев Никита, Ташпулатова Амира, Ташпулатов Дильмурад
TIJORAT BANKLARIDA JINOIY DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASHISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH 123
Rustamov Sunnatillo Rustamovich
LEGAL FOUNDATIONS OF GREEN FINANCING IN THE ACTIVITIES OF BUSINESS ENTITIES 127
Makhtimova Zarafshon Olloyorovna
YASHIL ENERGETIKA INFRATUZILMASIDAGI MUAMMOLAR 130
Jabborov Xurshid To'ramurod o'g'li
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA HAMKORLIKDA O'RGANISHNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI 134
Choriyeva Lobar, Safarov Azamat
ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ НА РЫНКЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 136
Кахрамонова Азиза, Джалилов Джамшид
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOATINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI 139
Isoqova Aziza Alisher qizi

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA NODEPOZIT MOLIYAVIY RESURSLARNING AHAMIYATI 142
Ziyodilloyev Xushnud Rahimboyevich
MILLIY KADRLAR ZAXIRASIGA KIRITISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 146
G‘aniyev Elyor Sobirjonovich
MODA BRENDLARINI BOSHQARISHDA MARKETING MENEJMENTI VA ISTE’MOLCHILAR XULQ-ATVORINING O‘ZARO TA’SIRINI BAHOLASH 150
Abdumajitova Adolat Bahrom qizi
MECHANISMS FOR IMPROVING THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM 155
Mukhtorov Ulugbek Khayotjonovich
PROSPECTS FOR A UNIFIED DIGITAL MONITORING SYSTEM LINKING THE TIERS OF TRADE AND INVESTMENT GOVERNANCE 158
Imamov Javokhir
THE ROLE OF INTERGOVERNMENTAL TRANSFERS IN MITIGATING REGIONAL INEQUALITY IN UZBEKISTAN: EMPIRICAL ASSESSMENT AND DIRECTIONS FOR IMPROVEMENT 162
Hakimov Feruz Xurshid ugli
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDLARI TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI, AMALDAGI HOLAT VA ISLOHOT YO‘NALISHLARI 165
Israilova Soxiba To‘lqin qizi
DIRECTIONS FOR ENSURING THE SUSTAINABILITY OF LOCAL BUDGETS THROUGH FISCAL DECENTRALIZATION IN UZBEKISTAN 169
Mahmudov Sarvar Tolibjonovich
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV KONFLIKTLARNI ERTA ANIQLASH VA ULARNING MOLIYAVIY OQIBATLARINI PROGNOZ QILISH INDIKATORLARI 175
Xolikova Saboxat Abdukarim qizi
YEVROPA MAMLAKATLARIDA VENCHUR BOZORI HOLATI TAHLILI 178
Abduraximova Shahruzaxon Sarvar qizi

YEVROPA MAMLAKATLARIDA VENCHUR BOZORI HOLATI TAHLILI

Abduraximova Shahruzaxon Sarvar qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti xodimi
E-mail: shahifazliddinova@gmail.com

Аннотация: В статье анализируются состояние, структура и проблемы развития венчурного рынка европейских стран за 2023–2025 годы. Установлено, что объём венчурных инвестиций в Европе вырос с 14,0 до 19,7 млрд евро (на 40,7%), средняя сумма инвестиций на одну компанию увеличилась с 2,88 до 4,08 млн евро, тогда как привлечение средств в венчурные фонды после роста до 23,8 млрд евро в 2024 году сократилось на 29% — до 16,8 млрд евро. Государственные агентства обеспечили 39% средств, привлечённых в венчурные фонды в 2025 году, что свидетельствует о высокой зависимости рынка от государства. Сравнение с США выявило структурный разрыв: доля ЕС в глобальном привлечении венчурных средств составляет 5% против 52% в США, совокупный объём венчурных фондов США примерно в шесть раз больше, а около 27% европейских «единорогов» перенесли штаб-квартиры за рубеж. Рассмотрены инструменты политики ЕС и сформулированы выводы для развития венчурного рынка Узбекистана.

Ключевые слова: венчурный капитал, венчурный рынок, Европа, фонд фондов, масштабирование, стартап, государственные агентства, Узбекистан.

Annotatsiya: Maqolada Yevropa mamlakatlari venchur bozorining 2023–2025-yillardagi holati, tarkibi va rivojlanish muammolari tahlil qilingan. Yevropada venchur investitsiyalar hajmi 14,0 mlrd yevrodan 19,7 mlrd yevroga (40,7 foizga) oshgani, bitta kompaniyaga o‘rtacha investitsiya 2,88 mln yevrodan 4,08 mln yevroga ko‘paygani, venchur fondlarga mablag‘ jalb qilish esa 2024-yilda 23,8 mlrd yevroga yetganidan keyin 2025-yilda 29 foizga qisqarib, 16,8 mlrd yevroni tashkil etgani aniqlangan. 2025-yilda venchur fondlarga jalb qilingan mablag‘larning 39 foizi davlat agentliklari hissasiga to‘g‘ri kelgani bozorning davlatga yuqori darajada bog‘liqligini ko‘rsatadi. AQSh bilan taqqoslash tarkibiy tafovutni aniqladi: global venchur mablag‘lari jalb qilishda Yevropa Ittifoqining ulushi 5 foiz, AQShniki 52 foiz, AQSh venchur fondlarining umumiy hajmi qariyb olti barobar katta, Yevropa “yakkashox” kompaniyalarining qariyb 27 foizi bosh qarorgohini xorijga ko‘chirgan. Yevropa Ittifoqining siyosat vositalari ko‘rib chiqilib, O‘zbekiston venchur bozorini rivojlantirish uchun xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: venchur kapitali, venchur bozori, Yevropa, fondlar fondi, masshtablash, startap, davlat agentliklari, O‘zbekiston.

Abstract: The article analyses the state, structure and development problems of the venture capital market in European countries in 2023–2025. It finds that venture capital investment in Europe rose from EUR 14.0 billion to EUR 19.7 billion (by 40.7%) and the average investment per company increased from EUR 2.88 million to EUR 4.08 million, whereas venture fundraising, after rising to EUR 23.8 billion in 2024, fell by 29% to EUR 16.8 billion in 2025. Government agencies provided 39% of the funds raised by venture funds in 2025, indicating the market’s high dependence on the state. A comparison with the United States reveals a structural gap: the EU accounts for 5% of global venture fundraising against 52% for the US, the total size of US venture funds is about six times larger, and about 27% of European unicorns have relocated their headquarters abroad. EU policy instruments are reviewed and conclusions are drawn for the development of the venture capital market in Uzbekistan.

Keywords: venture capital, venture market, Europe, fund of funds, scale-up, start-up, government agencies, Uzbekistan.

KIRISH

Venchur bozori[1] innovatsion iqtisodiyotning asosiy moliyaviy infratuzilmasi hisoblanadi: u yuqori texnologik startaplarni dastlabki bosqichdan global kompaniyaga aylanishigacha moliyalashtiradi. So‘nggi yillarda Yevropa mamlakatlari raqobatbardoshligi masalasi muhokamasida venchur kapitalining yetishmasligi markaziy o‘rinlardan birini egallamoqda. Yevropa Komissiyasi buyurtmasi bilan tayyorlangan M. Dragi hisobotida ta’kidlanishicha, global venchur mablag‘larini jalb qilishda Yevropa Ittifoqining ulushi atigi 5 foizni tashkil etadi, AQShda bu ko‘rsatkich 52 foiz, Xitoyda 40 foiz [4].

1 Venchur bozori — yuqori o‘sish salohiyatiga ega yosh innovatsion kompaniyalarga ulushli ishtirok asosida investitsiya kiritiladigan kapital bozori segmenti; u venchur fondlarga mablag‘ jalb qilish (fundraising), investitsiya kiritish va investitsiyadan chiqish (divestment, exit) bosqichlarini qamrab oladi.

Yevropa Ittifoqi bu tafovutni qisqartirish maqsadida 2025-yilda “Choose Europe” shiori ostida Startaplar va skeylaplar strategiyasini qabul qildi [7], Yevropa investitsiya banki guruhi esa 2025–2027-yillarda TechEU dasturi doirasida 70 mlrd yevro ajratib, kamida 250 mlrd yevro investitsiya safarbar qilishni rejalashtirdi [3]. Yevropa tajribasi O‘zbekiston uchun ham dolzarb: mamlakatimizda 2030-yilgacha 2 mlrd dollar venchur investitsiya jalb qilish maqsadi qo‘yilgan [15], venchur bozori esa, Yevropadagi kabi, asosan davlat tashabbusi bilan shakllanmoqda.

Tadqiqotning maqsadi 2023–2025-yillar ma’lumotlari asosida Yevropa mamlakatlarida venchur bozorining holati, tarkibi va muammolarini tahlil qilish, uni AQSh bozori bilan taqqoslash hamda O‘zbekiston venchur bozorini rivojlantirish uchun amaliy xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yevropa venchur bozori xususiyatlari ko‘plab tadqiqotlarda o‘rganilgan. M. Da Rin, G. Nikodano va A. Sembenelli Yevropa mamlakatlari ma’lumotlari asosida davlat siyosati — kapital daromadi solig‘ini kamaytirish va texnologik kompaniyalar uchun fond bozori segmentlarini yaratish — venchur investitsiyalar tarkibida yuqori texnologik va dastlabki bosqich loyihalari ulushini oshirishini ko‘rsatgan [10]. F. Bertoni, M. Kolombo va L. Grilli Italiya yuqori texnologik startaplari misolida venchur kapitali bilan moliyalashtirish kompaniyalarning bandlik va savdo hajmi o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, bu ta’sir investorlarning “yaxshi” loyihalarni tanlashi bilan emas, balki bevosita moliyalashtirish samarasi bilan bog‘liqligini isbotlagan [9]. A. Popov va P. Roosenboom esa Yevropada venchur kapitalining innovatsiyalarga ta’siri kirish to‘siqlari past va inson kapitali yuqori mamlakatlarda kuchliroq ekanini aniqlagan [11].

Yevropa institutlari tadqiqotlari bozorning tarkibiy cheklovlariga e’tibor qaratadi. Yevropa investitsiya banki hisobotida Yevropa Ittifoqidagi innovatsion firmalarning skeylap bosqichida moliyalashtirish cheklovlariga duch kelishi tahlil qilingan [8]. Yevropa Markaziy banki iqtisodchilari A. Baumann va hammualliflari AQShda joylashgan venchur fondlarining umumiy hajmi Yevropa Ittifoqidagidan qariyb olti barobar katta ekanini, transatlantik tafovut esa keyingi moliyalashtirish raundlarida kuchayishini ko‘rsatgan [5].

Mahalliy tadqiqotchilardan D. B. Rahimov O‘zbekistonda venchur kapital bozorini rivojlantirish uchun venchur fondlarning kommandit shirkat (limited partnership) shaklini joriy etish, davlat boshqaruvidagi fondlar fondini tashkil etish va xorijiy venchur investorlar uchun soliq imtiyozlarini berishni taklif etgan [12]. S. R. Chulliyev mamlakatimizda venchur moliyalashtirishning asosiy muammolari sifatida qonunchilikning xalqaro amaliyotga to‘liq mos emasligi, fondlar bozorining torligi va investitsiyadan chiqish qiyinligini ko‘rsatgan [13]. Adabiyotlar tahlili Yevropa venchur bozorining so‘nggi uch yildagi rivojini yangi ma’lumotlar asosida tahlil qilib, uni O‘zbekiston uchun amaliy xulosalar bilan bog‘lovchi tadqiqotlarga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy asosini davlat siyosatining venchur bozorini shakllantirishdagi roli konsepsiyasi [10] va venchur kapitalining kompaniyalar o‘sishiga ta’siri nazariyasi [9] tashkil etadi. Empirik baza sifatida Invest Europe tashkilotining Yevropa xususiy kapital va venchur bozori faoliyati bo‘yicha 2025-yil hisoboti [1; 2], Yevropa investitsiya fondi [3], Yevropa Komissiyasi [4; 7], Yevropa Markaziy banki [5], Xalqaro valyuta jamg‘armasi [6] va Yevropa investitsiya banki [8] ma’lumotlari olindi. Tahlil davri 2023–2025-yillarni qamrab oladi. Tadqiqotda dinamik qatorlar tahlili, tarkibiy tahlil, nisbiy ko‘rsatkichlar, qiyosiy va institutsional tahlil usullari qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yevropa venchur bozorining 2023–2025-yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.
Yevropa venchur bozorining asosiy ko‘rsatkichlari (2023–2025-yillar)[2]

Ko‘rsatkich	2023	2024	2025	2025/2023, %
Venchur fondlarga jalb qilingan mablag‘, mlrd yevro	15,4	23,8	16,8	109,1
Venchur investitsiyalar, mlrd yevro	14,0	18,9	19,7	140,7
Investitsiya kiritilgan kompaniyalar soni, ta	4 857	4 925	4 827	99,4
Bitta kompaniyaga o‘rtacha investitsiya, mln yevro	2,88	3,84	4,08	141,7
Investitsiyadan chiqish (boshlang‘ich qiymat bo‘yicha), mlrd yevro	2,5	3,1	3,2	128,0
Investitsiyadan chiqilgan kompaniyalar soni, ta	1 224	1 336	1 211	98,9
Investitsiyadan chiqishning investitsiyaga nisbati, %	17,9	16,4	16,2	–

Manba: Invest Europe ma’lumotlari [1] asosida muallif tomonidan tuzilgan va hisoblangan.

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2023–2025-yillarda Yevropada venchur investitsiyalar hajmi 14,0 mlrd yevrodan 19,7 mlrd yevroga, ya’ni 40,7 foizga oshgan [1]. Invest Europe ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yildagi qariyb 20 mlrd yevrolik investitsiya so‘nggi besh yillik o‘rtacha darajadan 20 foiz yuqori [2]. Biroq investitsiya kiritilgan kompaniyalar soni deyarli o‘zgarmagan (4 857 tadan 4 827 taga), natijada bitta kompaniyaga o‘rtacha investitsiya 2,88 mln yevrodan 4,08 mln yevroga oshgan. Bu bozorda kamroq, ammo yirikroq bitimlar tomon siljish yuz berayotganini ko‘rsatadi. Venchur fondlarga mablag‘ jalb qilish esa beqaror: 2024-yilda 23,8 mlrd yevroga yetgan bo‘lsa, 2025-yilda 29 foizga qisqarib, 16,8 mlrd yevroni tashkil etgan [1]. Investitsiyadan chiqish hajmining investitsiyalarga nisbati 17,9 foizdan 16,2 foizga pasaygani investorlarga kapitalni qaytarish jarayoni sekinlashganini anglatadi. Yevropa investitsiya fondi so‘rovida ham fond boshqaruvchilarining mablag‘ jalb qilish muhitini “qiyin” deb baholaganlari “qulay” deb baholaganlaridan 46 foiz punktga ko‘p bo‘lgani qayd etilgan [3].

Venchur investitsiyalarning rivojlanish bosqichlari bo‘yicha tarkibi 2-jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval.
Yevropada venchur investitsiyalarning bosqichlar bo‘yicha tarkibi (2023–2025-yillar)[3]

Bosqich	2023, mlrd yevro	2023, %	2024, mlrd yevro	2024, %	2025, mlrd yevro	2025, %
Urug‘ (seed)	1,2	8,6	1,6	8,5	1,8	9,1
Startap (start-up)	7,0	50,0	7,9	41,8	9,7	49,2
Keyingi bosqich venchur	5,8	41,4	9,4	49,7	8,2	41,6
Jami	14,0	100,0	18,9	100,0	19,7	100,0

Manba: Invest Europe ma’lumotlari [1] asosida muallif tomonidan tuzilgan va hisoblangan.

2-jadvaldan ko‘rinadiki, Yevropa venchur bozorida startap bosqichi investitsiyalari ustunlik qiladi: 2025-yilda ular 9,7 mlrd yevro yoki jami venchur investitsiyalarning 49,2 foizini tashkil etgan. Urug‘ bosqichi investitsiyalari barqaror o‘sib, 1,2 mlrd yevrodan 1,8 mlrd yevroga yetgan. Keyingi bosqich venchur investitsiyalari esa eng beqaror segment bo‘lib, 2024-yilda 9,4 mlrd yevroga oshganidan keyin 2025-yilda 8,2 mlrd yevroga qisqargan [1]. Aynan shu bosqich kompaniyalarni global miqyosga olib chiqish (skeylap) uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. M. Dragi hisobotida ham Yevropa Ittifoqi va AQSh o‘rtasidagi eng katta tafovut keyingi bosqich moliyalashtirishda ekani ta’kidlangan [4]. Tarmoqlar bo‘yicha 2025-yilda venchur investitsiyalarning qariyb yarmi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga, 27 foizi biotexnologiya va sog‘liqni saqlashga, 8 foizi biznes mahsulotlari va xizmatlariga yo‘naltirilgan [1].

Yevropa venchur bozorining o‘ziga xos xususiyati — mablag‘ manbalari tarkibida davlatning yuqori ulushidir (3-jadval).

2 Invest Europe statistikasi Yevropa mamlakatlaridagi xususiy kapital va venchur fondlari faoliyatini qamrab oladi; investitsiyalar portfel kompaniyasining joylashuvi bo‘yicha hisobga olinadi. Bir kompaniyaga o‘rtacha investitsiya va investitsiyadan chiqishning investitsiyaga nisbati muallif tomonidan hisoblangan.

3 Bosqichlar Invest Europe tasnifiga ko‘ra: urug‘ (seed) — mahsulot konsepsiyasini ishlab chiqish; startap (start-up) — mahsulotni ishlab chiqish va dastlabki marketing; keyingi bosqich venchur (later-stage venture) — faoliyat yuritayotgan kompaniyaning o‘sishini moliyalashtirish. Ulushlar muallif tomonidan hisoblangan.

3-jadval.
Yevropada venchur fondlarga jalb qilingan mablag‘larning investorlar turlari bo‘yicha tarkibi (2025-yil), %

Investor turi	Ulushi, %	Guruh
Davlat agentliklari	39	Davlat
Korporativ investorlar	17	Xususiy
Xususiy shaxslar	12	Xususiy
Oilaviy ofislar	7	Xususiy
Fondlar fondi	5	Institutsional
Sug‘urta kompaniyalari	5	Institutsional
Boshqa aktiv boshqaruvchilari	4	Institutsional
Pensiya jamg‘armalari	4	Institutsional
Banklar	3	Institutsional
Endaument va xayriya fondlari	3	Institutsional
Suveren boylik fondlari	1	Davlat

Manba: Invest Europe ma’lumotlari [1] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda Yevropada venchur fondlarga jalb qilingan mablag‘larning 39 foizi davlat agentliklari hissasiga to‘g‘ri kelgan va bu ulush o‘sib bormoqda [1]. Pensiya jamg‘armalari ulushi esa atigi 4 foiz, sug‘urta kompaniyalari ulushi 5 foizni tashkil etadi. Yevropa Markaziy banki tadqiqotida ham AQSh venchur fondlari pensiya jamg‘armalari va xayriya fondlaridan ko‘proq mablag‘ jalb qilishi qayd etilgan [5]. Demak, Yevropa venchur bozorining asosiy muammosi institutsional investorlar, ayniqsa, pensiya jamg‘armalarining kam ishtiroki bo‘lib, uni davlat mablag‘lari qisman qoplamoqda.

Yevropa venchur bozorining global o‘rnini baholash uchun u AQSh bozori bilan taqqoslandi (4-jadval).

4-jadval.
Yevropa va AQSh venchur bozorlarining qiyosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Yevropa (Yel)	AQSh	Manba
Global venchur mablag‘lari jalb qilishdagi ulush, %	5 (Yel)	52	Dragi hisoboti, 2024 [4]
Venchur investitsiyalar, 2024-yil, mlrd yevro	**57**[4]	**210**	**XVF, 2025 [6]**
Venchur bitimlari soni, 2024-yil	10 mingdan kam	15 mingdan ortiq	XVF, 2025 [6]
Venchur fondlarining umumiy hajmi, mlrd yevro	qariyb 150 (Yel)	qariyb 930	YeMB, 2026 [5]
Bitta fondning yillik o‘rtacha mablag‘ jalb qilishi (2020–2025), mln yevro	73 (Yel va Buyuk Britaniya)	103	YeMB, 2026 [5]
Sun’iy intellekt startaplari global moliyalashtirishidagi ulush, %	6 (Yel)	61	Dragi hisoboti, 2024 [4]
2008–2021-yillarda tashkil etilgan “yakkashox”lar, ta	147, shundan 40 tasi xorijga ko‘chgan	–	Dragi hisoboti, 2024 [4]

Manba: Ko‘rsatilgan rasmiy manbalar [4–6] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

4-jadval Yevropa va AQSh venchur bozorlari o‘rtasidagi tarkibiy tafovutni yaqqol ko‘rsatadi. 2024-yilda AQShda venchur investitsiyalar 210 mlrd yevroni, Yevropada 57 mlrd yevroni tashkil etgan [6], ya’ni ikki bozor jami hajmida Yevropaning ulushi 21,3 foizni tashkil etadi. AQSh venchur fondlarining umumiy hajmi qariyb 930 mlrd yevro bo‘lib, Yevropa Ittifoqidagidan (qariyb 150 mlrd yevro) olti barobar katta [5]. Yevropa fondlarining o‘rtacha hajmi ham kichik, bu esa ularning keyingi bosqichdagi yirik raundlarni moliyalashtirish imkoniyatini cheklaydi. Natijada 2008–2021-yillarda Yevropada tashkil etilgan 147 ta “yakkashox” kompaniyadan 40 tasi, ya’ni qariyb 27 foizi bosh qarorgohini xorijga, asosan AQShga ko‘chirgan [4]. Sun’iy intellekt kabi strategik sohada tafovut yanada keskin: global moliyalashtirishning 61 foizi AQSh, atigi 6 foizi Yevropa Ittifoqi kompaniyalariga to‘g‘ri keladi [4].

Ushbu muammolarni hal etish uchun Yevropa Ittifoqi va uning institutlari tomonidan qo‘llanilayotgan asosiy siyosat vositalari hamda ularning O‘zbekiston uchun ahamiyati 5-jadvalda umumlashtirildi.

4 AQSh va Yevropa venchur investitsiyalari hajmi Xalqaro valyuta jamg‘armasining “Finance & Development” jurnalida Italian Tech Alliance ma’lumotlari asosida keltirilgan; Yevropaning ulushi (57 / (210 + 57) = 21,3%) muallif tomonidan hisoblangan.

5-jadval.
Yevropa Ittifoqining venchur bozorini rivojlantirish vositalari va O‘zbekiston uchun xulosalar

Vosita	Mazmuni va ko‘lami	O‘zbekiston uchun xulosa
Yevropa texnologik chempionlari tashabbusi (ETCI)[5]	**Fondlar fondi orqali yirik venchur fondlarga investitsiya; 20 mlrd yevrodan ortiq mablag‘ safarbar qilingan, EIB guruhi va a’zo davlatlar 3,9 mlrd yevro ajratgan, 9 ta “yakkashox” qo‘llab-quvvatlangan [3]**	**“UzVC” fondlar fondi**[6] **mablag‘larini xususiy va xorijiy investorlar bilan birgalikda keyingi bosqich fondlariga yo‘naltirish**
TechEU dasturi (2025–2027)	EIB guruhi 70 mlrd yevro ajratib, kamida 250 mlrd yevro investitsiya safarbar qilishni ko‘zda tutadi [3]	Davlat mablag‘larini xususiy kapitalni jalb qiluvchi (leverage) vosita sifatida ishlatish
Startaplar va skeylaplar strategiyasi (2025)	Ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish (“28-rejim”), venchur bozorini va institutsional investitsiyalarni kuchaytirish, Scaleup Europe Fund, iste’dodlarni jalb qilish [7]	Venchur fondlar uchun kommandit shirkat shaklini joriy etish, xorijiy asoschilar uchun soddalashtirilgan tartib
Institutsional investorlarni jalb qilish	Pensiya va sug‘urta mablag‘larining venchur fondlardagi ulushi past (4–5%) [1]	Pensiya va sug‘urta mablag‘larining kichik qismini venchur fondlarga yo‘naltirish imkoniyatini yaratish

Manba: Yevropa institutlarining rasmiy materiallari [1; 3; 7] va O‘zbekiston qonunchiligi [14; 15] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

5-jadvaldan ko‘rinadiki, Yevropa Ittifoqi siyosatining asosiy yo‘nalishi davlat mablag‘larini bevosita startaplarga emas, balki fondlar fondi orqali xususiy boshqaruvchilar boshqaradigan fondlarga yo‘naltirib, ularning xususiy kapitalni jalb qilish salohiyatidan foydalanishdir. ETCI tajribasi shuni ko‘rsatadiki, 3,9 mlrd yevro davlat mablag‘i 20 mlrd yevrodan ortiq investitsiyani safarbar qilgan [3], ya’ni har bir yevro davlat mablag‘i qariyb besh yevro umumiy investitsiyani jalb qilgan. Bu yondashuv O‘zbekiston uchun ham dolzarb: mamlakatimizda “UzVC” milliy venchur fondi fondlar fondi sifatida qayta tashkil etilgan [14], 2026–2027-yillarda startap ekotizimiga 160 mln dollar ajratish belgilangan [15], 2024–2025-yillarda esa venchur fondlar soni 15 taga, ekotizim qiymati 3,9 mlrd dollarga yetgan [16]. Yevropa tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonda ham davlat mablag‘larining jalb qiluvchi ta’sirini asosiy samaradorlik mezoni sifatida belgilash maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2023–2025-yillarda Yevropa venchur bozori tiklanish bosqichida bo‘ldi: venchur investitsiyalar 14,0 mlrd yevrodan 19,7 mlrd yevroga oshdi, bitta kompaniyaga o‘rtacha investitsiya 4,08 mln yevroga yetdi. Biroq bozor tarkibiy muammolarga ega: venchur fondlarga mablag‘ jalb qilish 2025-yilda 29 foizga qisqardi, mablag‘larning 39 foizi davlat agentliklari hissasiga to‘g‘ri keladi, pensiya jamg‘armalari ishtiroki esa 4 foiz bilan cheklangan. AQSh bilan taqqoslaganda Yevropa venchur fondlari olti barobar kichik, keyingi bosqich moliyalashtirishdagi tafovut esa istiqbolli kompaniyalarning xorijga ko‘chishiga olib kelmoqda.

Yevropa tajribasi asosida O‘zbekiston venchur bozorini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi: birinchidan, “UzVC” fondlar fondi mablag‘larini faqat xususiy va xorijiy investorlar ishtirokida birgalikda investitsiya qilish tamoyili asosida yo‘naltirish va davlat mablag‘larining jalb qiluvchi ta’sirini asosiy samaradorlik ko‘rsatkichi sifatida belgilash; ikkinchidan, venchur fondlar uchun kommandit shirkat tashkiliy-huquqiy shaklini joriy etish; uchinchidan, keyingi bosqich (skeylap) moliyalashtirishga ixtisoslashgan fondlarni xalqaro moliya institutlari ishtirokida tashkil etib, istiqbolli kompaniyalarning xorijga ko‘chib ketishining oldini olish; to‘rtinchidan, pensiya jamg‘armasi va sug‘urta kompaniyalari mablag‘larining kichik qismini venchur fondlarga yo‘naltirish imkoniyatini yaratish; beshinchidan, venchur fondlar faoliyati bo‘yicha Yevropa standartlariga mos yagona statistik hisobotni joriy etish. Mazkur choralar O‘zbekiston venchur bozorining barqaror va xususiy kapitalga asoslangan rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Invest Europe. Investing in Europe: Private Equity Activity 2025. — Brussels, 2026. URL: https://www.investeurope.eu/media/2icnrmzc/20260507-invest-europe-activity-data-report-2025.pdf

5 Yevropa texnologik chempionlari tashabbusi (European Tech Champions Initiative, ETCI) — 2023-yilda EIB guruhi va a’zo davlatlar tomonidan yirik venchur fondlarga fondlar fondi orqali investitsiya kiritish uchun tashkil etilgan.

6 O‘zbekistonda “UzVC” milliy venchur fondi PQ-357-son qaror bilan fondlar fondi sifatida qayta tashkil etilgan [14].

2. Invest Europe. European private equity activity strengthens in 2025 with second-best year on record for fundraising and investment. — Brussels, 2026. URL: https://www.investeurope.eu/news/newsroom/european-private-equity-activity-strengthens-in-2025-with-second-best-year-on-record-for-fundraising-and-investment/

3. European Investment Fund. Europe's venture-capital market shows renewed optimism (2025-yil 8-oktabr). URL: https://eif.org/what_we_do/equity/news/2025/europes-venture-capital-market-shows-renewed-optimism

4. European Commission. The Future of European Competitiveness (M. Draghi report). — Brussels, 2024. URL: https://commission.europa.eu/document/download/97e481fd-2dc3-412d-be4c-f152a8232961_en

5. Baumann A., Gati Z., Vinci F., Wolf G. Europe's venture capital gap and the financing of high-growth firms // ECB Economic Bulletin. — 2026. — Issue 5. URL: https://ecb.europa.eu/press/economic-bulletin/focus/2026/html/ecb.ebbox202605_01~4453cc2a34.en.html

6. Merli A. Europe's Innovators Are Waking Up // Finance & Development. — IMF, 2025. — June. URL: https://www.imf.org/en/publications/fandd/issues/2025/06/europes-innovators-are-waking-up-alessandro-merli

7. European Commission. The EU Startup and Scaleup Strategy: Choose Europe to start and scale. COM(2025) 270 final. — Brussels, 28.5.2025. URL: https://research-and-innovation.ec.europa.eu/document/download/2f76a0df-b09b-47c2-949c-800c30e4c530_en

8. European Investment Bank. The scale-up gap: Financial market constraints holding back innovative firms in the European Union. — Luxembourg: EIB, 2024. — DOI: 10.2867/382579. URL: https://www.eib.org/publications/20240130-the-scale-up-gap

9. Bertoni F., Colombo M. G., Grilli L. Venture capital financing and the growth of high-tech start-ups: Disentangling treatment from selection effects // Research Policy. — 2011. — Vol. 40, No. 7. — P. 1028–1043.

10. Da Rin M., Nicodano G., Sembenelli A. Public policy and the creation of active venture capital markets // Journal of Public Economics. — 2006. — Vol. 90, No. 8–9. — P. 1699–1723.

11. Popov A., Roosenboom P. Venture Capital and Patented Innovation: Evidence from Europe // Economic Policy. — 2012. — Vol. 27, No. 71. — P. 447–482.

12. Rahimov D. B. O'zbekistonda venchur kapital bozorini rivojlantirish: imkoniyatlar va to'siqlar // Iqtisodiyot va innovatsiyalar ilmiy jurnali. — 2026. — Vol. 1, No. 01. — B. 9–16. URL: https://x7.tsue.uz/media/submissions/files/2026/06/venchur_kapital.pdf

13. Chulliyev S. R. O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlik va venchur fondlarini qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2024. — Vol. 12, No. 3. URL: https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/download/525/562/599

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-357-son "Startap loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. URL: https://lex.uz/uz/docs/-7155286

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-fevraldagi PQ-59-son "Startaplarni qo'llab-quvvatlashning kompleks ekotizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. URL: https://lex.uz/docs/8046189

16. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar ko'rib chiqildi (2026-yil 20-yanvar). URL: https://president.uz/oz/lists/view/8867

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100